



## QORAQALPOG‘ISTON O‘ZBEK TILI O‘G‘UZ LAHJASIDAGI FRAZELOGIZMLARNING O‘RGANILISHI

**Xazirbayeva Mexribon**

*Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI O‘zbek tili  
va adabiyoti mutaxassisligi 1-bosqich  
magistranti*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Qoraqalpog‘iston hududida istiqomat qiluvchi o‘g‘uz lahjasi vakillari tillaridagi ayrim frazemalarning boshqa turkiy xalqlar tillari bilan qiyosini o‘rgandik. Maqolamizda shevada qo‘llaniluvchi frazeologizmlarning adabiy tildagi qiyosini o‘rganishga harakat qildik. Bunda asosan Ellikqa‘la va To‘rtko‘l tumani aholisi tilidagi frazeologizmlardan misollar keltirdik.*

***Kalit so‘zlar:** dialektal frazeologizmlar, sinonimik qator, frazeologik lug‘at, frazeologik birlik.*

Leksikologiyaning bir bo‘lagi bo‘lgan frazeologiya hozirda alohida yo‘nalish bo‘lib ajralib chiqqan. Sh.Rahmatullayevning "O‘zbek frazeologiyasining ba‘zi masalalari" nomli doktorlik dissertatsiyasida frazeologizmlardagi ko‘p ma‘nolilik, o‘zaro sinonimlik, variantlilik, qarama-qarshi ma‘nolilik, omonim yoki shakldoshlik hodisalari haqida ilmiy-nazariy ma‘lumotlar berilganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu kabi tadqiqot ishlaridan yana ko‘plab misollar mavjud. Olimlarimiz tomonidan frazeologizmlar bo‘yicha bir qancha lug‘atlar yaratildi. O‘zbekistonda asosan bir tilli (izohli) (SH.Raxmatullaev), ikki tilli ruscha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-ruscha (M.Sodiqova) lug‘atlar chop etilgan.<sup>1</sup> Undan tashqari ilmiy maqolalar, dissertatsion ishlar, monografik kuzatishlar yuzaga keldi. Frazeologiya hozirgi kunda tilshunoslikning grammatika, leksikologiya, fonetika va fonologiya bo‘limlari kabi o‘z tekshirish metodiga va o‘rganish obyektiga ega bo‘lgan alohida sohaga aylandi. Frazeologizmlar nafaqat adabiy tilida balki shevada ham o‘rganilyapti. Bugungi kunda o‘zbek tilshunosligining sheva frazeologiyasini o‘rganish, frazeologizmlarning shakllanish masalalarini tadqiq qilish, ularning semantikasini tahlil qilish ahamiyatga ega bo‘lgan masalalardandir. Bu masalalar albatta o‘z tadqiqotchilarini kutib turganidan dalolat beradi. Shunday bo‘lsa ham dialektal frazeologizmlar bo‘yicha X.Qahhorova va B.Yo‘ldoshevning ishlarida, Samarqand shevalariga oid frazeologizmlar hamda X.Doniyorovning ishlarida esa Jizzax va Sirdaryo viloyatlari shevalariga mansub frazeologizmlar xususida faktik materiallar asosida to‘xtalib o‘tilgan. Bu tadqiqotlarda Qoraqalpog‘iston shevalariga xos frazeologizmlar haqida hech qanday ma‘lumotlar keltirilmaydi. Mazkur maqolada Qoraqalpog‘istondagi turkiy xalqlar tillaridagi dialektal frazeologizmlarning ayrimlari haqida ma‘lumot

<sup>1</sup> Azimova S., Uzoqova X. // Frazeologik lug‘atlar haqida umumiy ma‘lumotlar. Международный научный журнал. «Научный импульс». 2023. -С. 305.



berib o'tamiz. Bilamizki yurtimizda turli millat vakillari bir-biri bilan ahil va inoq yashamoqdalar. Shu jihatlarini hisobga olgan holda Qoraqalpog'istondagi o'g'uz lahjasida qo'llaniladigan frazemalarning o'zbek adabiy tilida frazeologik lug'atdagi muqobilini ko'rishimiz mumkin.

Xalqimizda tez xafa bo'lib qoladigan, tanqidga chidamaydigan odamlarni ko'p uchratamiz. Bunday insonlarga gapirganimizda bir gapimiz ko'p bir gapimiz ozdir. O'g'uz lahjasida bundaylarga nisbatan *sirkasi suv go'tarmaye* iborasini qo'llaydilar. O'zbek adabiy tilida bo'lsa *sirkasi suv ko'tarmaydi*, *sirkasi suv ko'tarmas*, *sirkasi suv ko'tarmaydigan* variantlarini ko'rishimiz mumkin.<sup>2</sup>

*Gözden duşmek* – masxara bo'lmoq degan ma'noni bildirib, uning yana shevada bir yerda tura olmaydigan, sho'x bolalarga nisbatan ham ishlatiladi. Bu iborani o'zbek adabiy tilida "*yerga ursa ko'kka sapchimoq*" shakli bor. Frazemaning Xorazm viloyatida *yeara ursa osmona sapchiydi* degan shakli mavjud va aytilgan gaplarni hazilga yo'yib, har doim quvnoq, sho'x bo'lib yuradigan odamlarga nisbatan ishlatiladi.

*Gulag asmak yoki gulag salmak* - tinglamaslik, gapiga kirmaslik degan ma'noni anglatadi. O'zbek tilimizda bu ibora *qulog solmoq* shakliga to'g'ri keladi.

*Janina degdi* - ushbu frazeologizm turkman tili shevasida kuni bilan ishlab charchagan odamga nisbatan ishlatiladi. Shuningdek, bo'lar - bo'lmasga biron kishiga turli xildagi mavzularda ko'p gapiraveradiganlarga ham qo'llaniladi. Qorluq lahjasi vakillari tilida *jonina deydi* shakli mavjud. Bu frazani Ellikqa'la tumani o'zbeklari orasida *jonina deydi* varianti mavjud.

Shuningdek, holi joniga qo'ymaslik, tinch qo'ymaslik ma'nosida adabiy tilimizda "*osmonga chiqsa, oyog'idan, yerga kirsang, qulog'idan tortmoq*" iborasini qo'llaymiz<sup>3</sup>. Bu iboraning "*osmonga uchsang oyog'ingdan, yerga kirsang qulog'ingdan tortmoq*" shaklini ham uchratdik. Masalan: "Qo'yadigan xotinim yo'q, - mushtini siqib dedi Boqijon. – *Osmonga uchsang oyog'ingdan, yerga kirsang - qulog'ingdan tortaman, bilib qo'y*"<sup>4</sup>. Ushbu frazeologik birlikning Ellikqa'la tuman sheva vakillari tilida "*asmana chiqsa ayakinan, yera girsang quloqinnan tortish*" "*itiñ işi diyvana bilen, seniñ işi shö bilen*" yoki "*asmana chiqsa ayaginani yere girsang guloğinan tartu*" shaklida To'rtko'l tumanida esa "*asmana chiqsa ayaginani, yere girsang saçinan tartu*" shaklida qo'llaniladi.

*Janyñdan doymak* - tarki dunyo qilmoq. Bu frazemaning "*jonimnan doydirdi*" shakli ham bor. O'zbek adabiy tilida aynan shunday varianti mavjud bo'lmasa ham

<sup>2</sup> Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. -Тошкент: «Ўқитувчи», 1978. -С. 213.

<sup>3</sup> Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. -Тошкент: «Ўқитувчи», 1978. -С. 195.

<sup>4</sup> Ойбек. Олтин водийдан шабадалар. -Тошкент: «ФАН», 1976. -С. 80.



shunga yaqinlari ko'zga tashlanadi. Aniqrog'i, ushbu frazeologizmning *ko'p ezmaladi* yoki *bo'lmasa oshirib yubordi* variantlari mavjuddir.

*Bar bol* - bu kimningdir biron ish qilayotgan paytida "xormang" so'ziga javob tariqasida aytganidir. Qoraqalpog'istondagi o'g'uz lahjasi vakillari tilida ham shu tarzda qo'llaniladi.

*Başa gelenini görmek (çekmek)* - taqdirda borini ko'rish.<sup>5</sup> Bu frazemaning Ellikqa'la turkmanlari tilida "*başu düşeni göz görer*" shakli, o'zbek adabiy tilida "*boshga tushganni ko'z ko'rar*" kabilarni aytib o'tishimiz mumkin. Bularni misol tariqasida keltirar ekanmiz asosan bu frazemalar bir-biridan tovushlar orqali farqlanadilar.

Mazkur frazeologizmlarning aksariyat qismi Qoraqalpog'istonning ko'plab hududlarida qo'llaniladi. Asosan o'g'uz lahjasidagi iboralar Ellikqa'la va To'rtko'l tumani aholisi tilida keng qo'llaniladi. Bunday frazemalarni misol tariqasida yana keltirishimiz mumkin. Chunki so'nggi yillarda bu sohaning turli sathlari keng qamrovda o'rganilmoqda. Ushbu maqolamizda ayrim frazemalarning kundalik hayotda qo'llaniladigan turlarini kuzatdik. Mavzu jihatidan har xil turdagi bu iboralar bir-biridan tovushlar orqali farqlanishini, bir tilda bir necha shakllari mavjudligini guvohi bo'ldik.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azimova S., Uzoqova X. // Frazeologik lug'atlar haqida umumiy ma'lumotlar. *Международный научный журнал. «Научный импульс»*. 2023. -С. 305.
2. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изохлаи фразеологик луғати. -Тошкент: «Ўқитувчи», 1978. -С. 195-213.
3. Kilichov N. Türkmen diliniñ frazeologik sözlügi. -Aşgabat, .2013. -С. 18-72.
4. Ойбек. Олтин водийдан шабадалар. -Тошкент: «ФАН», 1976. -С. 80.

<sup>5</sup> Kilichov N. Türkmen diliniñ frazeologik sözlügi. -Aşgabat, 2013. -С. 18-72.